



**KATTA ASHULA SAN'ATINING O'ZIGA XOSLIGI HAMDA HOFIZ
MAMATBUVA SATTOROV IJODINING YOSHLARGA NAMUNA
BO'LADIGAN JIHATLARI**

**Farg'ona davlat universiteti "San'atshunoslik" fakulteti Musiqiy ta'lim va
madaniyat kafedrası 1-bosqich magistranti**

Yuldashaliyeva Azizaxon Sherali qizi

**Ilmiy rahbar: Farg'ona davlat universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi**

Imiyamin Qirg'izov

Annotatsiya

Ushbu maqolada Farg'ona vodiysiga xos bo'lgan musiqiy janr- Katta ashula san'ati haqida, shuningdek, ushbu janrda ijod qilgan yetkachi hofiz Mamatbuva Sattorov ijodiga oid qiziqarli ma'lumotlar ilmiy manbaalar asosida yoritib beriladi. Mazkur ish orqali yoshlar orasida o'zbek mumtoz musiqasiga bo'lgan qiziqishni oshirish, san'atning go'zal tomonlarini ochib berish maqsad qilingan.

Аннотация

В данной статье на основе научных источников будут освещены интересные сведения о музыкальном жанре Ферганской долины - искусстве большого пения, а также о творчестве лидера этого жанра хафиза Маматбува Саторова. Посредством этой работы она направлена на повышение интереса молодежи к узбекской классической музыке, раскрытие прекрасных сторон искусства.

Annotation

In this article, based on scientific sources, interesting information about the musical genre of the Fergana Valley - the art of big singing, as well as the work of the leader of this genre, Hafiz Mamatbuva Satorov, will be covered. Through this





work, it is aimed to increase interest in Uzbek classical music among young people, to reveal the beautiful aspects of art.

Kalit soʻzlar: Katta ashula sanʼati, mumtoz musiqa, hofizlik ijodi, Fargʻona vodiysiga xos uslub, yakka ovoqlik, joʻrovoqlik.

Ключевые слова: большое пение, классическая музыка, творчество хафиза, специфика Ферганской музыки, сольное пение, гармония.

Key words: Art of big song, classical music, creativity of hafizs, the specific method of Fergana valley music, solo, harmony.

“Mamlakatimizda yangi Oʻzbekistonni barpo etishdek ulugʻ maqsadga erishish yoʻlida asosiy tayanchimiz boʻlgan azmu shijoatli yoshlarga eʼtibor va gʻamxoʻrlik koʻrsatish, ularga barcha sohalarda oʻz iqtidori va salohiyatini toʻliq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishi hisoblanadi.”¹ deya taʼkidlaydi yurtboshimiz oʻzining yoshlarga murojaatida. Yana bir muhim yangilik – musiqa sanʼatiga qiziqishi baland boʻlgan yoshlarni yanada qoʻllab-quvvatlash maqsadida 2022-2023 oʻquv yilidan boshlab maqom xonandaligi, maqom cholgʻu ijrochiligi va baxshichilik yoʻnalishlariga yangi qabul qilingan talabalarning shartnoma toʻlovlari toʻliq davlat tomonidan toʻlab beriladi. Fortepiano ijrochilari tayyorlash boʻyicha qabul 3 barobar koʻpaytirilib, bu yoʻnalishda ham kontrakt toʻlovlari toʻla qoplab beriladi.²

Bu ham boʻlsa hozirgi kunda oʻzbek musiqa sanʼati rivoji yoʻlida qilinayotgan ustuvor yangiliklardan biridir. Yoshlarga qoʻyiladigan talab esa ushbu imkoniyatlardan unumli foydalangan holda oʻz yoʻnalishi boʻyicha izlanish, oʻqish

¹ YOSHLARNI HAR TOMONLAMA QOʻLLAB-QUVVATLASH VA ULARNING IJTIMOY FAOLLIGINI YANADA OSHIRISHGA OID QOʻSHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TOʻGʻRISIDA

² Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yoshlar kuniga bagʻishlangan tantanali marosimdagi nutqi 30-iyun, 2022-yil





va olg'a harakat qilish, shu bilan bir qatorda mumtoz musiqamizning go'zal namunalarini yaqindan bilish, targ'ib qilish va tarixan boy merosimizni asrab-avaylashdir.

O'zbek musiqa san'atida beqiyos o'ringa ega bo'lgan, o'zining boy tarixi hamda go'zalligi bilan ajralib turadigan janrlardan biri Katta ashula san'atidir. Bu janrda Farg'ona vodiysida juda ko'plab hofizlar, ijodkorlar samarali ijod qilganlar. Ularning har biri o'zining mahurat maktabi, ijro uslubi va hofizlikning yuqori darajasi bilan ajralib turadi. Mazkur maqolada ushbu janrning o'ziga xosligi hamda unda ijod qilgan yetakchi hofiz Mamatbuva Sattorov haqida so'z boradi. O'zbek xalqining ko'p janrli mumtoz musiqa ijodiyotida katta ashula janri salmoqli o'rinni egallaydi. U yirik ashula janri bo'lib, asosan Farg'ona vodiysiga xos, ikki-to'rt ijrochi (hofiz) tomonidan cholg'u jo'rlogisiz ijro etilgan. Katta ashula deb nomlanishiga sabab — bu ashulalar ochiq havoda, katta auditoriya orasida baland va kuchli ovoz bilan, keng diapazonda ijro etilishi va o'ziga xos katta mavzu va ijro uslubiga egaligidadir³.

Uni xalq orasida «patnis ashula» yoki «patnusaki ashula» deb ikkinchi nom bilan ham atashgan. Ashulani hofizlar qo'llariga patnis yoki likobcha (tarelka) ushlab, ijro jarayonida ovoz yo'nalishini o'zgartirishga hamda o'z va hamnafasi ovozini tinglashga, uni silkitish orqali ovozni to'lqinlatib, qochirimlar qilishga yordam bergan. Bu ashulalar baland pardalarda ijro etiladi.

Bundan tashqari, katta yig'inlarda, to'y-tomoshalarda, mehmondorchiliklarda aytilishi tufayli ham ularga «katta ashula» nomi berilgan bo'lishi mumkin. Katta ashula ijrochidan zo'r qobiliyat va mahorat, shuningdek, so'z bo'g'inlariga e'tibor qilishni, she'rning ma'nosini va so'zlarini dona-dona talaffuz qilib, tinglovchilarga yetkazishni talab qiladi.

Katta ashula ijrochiligida shuhrat qozongan zabardast hofiz-Mamatbuva Sattorov hisoblanadi. O'z ijro uslubi bilan yoshlarni jalb eta olgan, juda ko'p etuk va bilimli

³ O'zME 2-jild, Toshkent 2000





shogirdlar tarbiyalagan ustozdir. Mamatbuva Sattorov 1885 yilda Marg‘ilon muzofotining Toshloq tumani So‘kchilik qishlog‘ida, san‘atkorlar oilasida tug‘ilgan. Uning otasi o‘g‘lining xonanda bo‘lishini juda istagan va do‘stlari taniqli san‘atkorlar Mamajon qori, Maqsudxo‘ja hofizlardan ashula aytish sirlarini o‘rganishiga sababchi bo‘lgan. Mamatbuva Sattorov har juma kunlari Qishloqdagi Mamajon qori choyxonasida bo‘ladigan ashulachilar aytishuviga qatnashib turardi. Keyinchalik bu choyxonada u xalq ardoqlagan xonandalar Xudoyberdi hofiz, To‘ychi Mirza, Madalibek, Boltaboy hofizlar xonishlarini tinglab qunt bilan o‘rgana boshlaydi.

Taniqli xonanda va ilm sohibi Sultonali Mannopov xonandani hayotini yoritishda yozadi – «Mamatbuva Qo‘qon yaqinidagi Kenegas qishlog‘ida yashovchi otashzabon shoir Haziniy dovrug‘ini ko‘pdan eshitib yurar, bu ulug‘ zot bilan suhbat qilishni juda orzu qilardi. Haziniy domla g‘azalogo‘y bo‘lishi bilan birga, tanbur chertib ajoyib xonishlar qilardilar. Mamatbuva bir necha muddat ul kishi uyida yurib g‘azaliyot ilmini hamda vodiyning ashula yo‘llarini o‘rganib qaytadi. «Chorgoh», «Ushshoq», «Munojat», singari qo‘shiqlarning yovvoyi uslubda ijro etiladigan yo‘llarini Haziniy domladan o‘rganganini xonanda eslab yurardi».

Mamatbuva hofiz 1915 yillarda Toshkentga kelib ikki yil yashab shu erda ijod qiladi. Toshkentning taniqli san‘atkorlari Mulla To‘ychi hofiz, SHorahim hofiz, Shojalil aka, Mirsoat aka va Ortiqxo‘ja Imomxo‘jaev(shogirdi) kabilar bilan yaqindan tanishib, ijodiy muloqotda bo‘ladi. (S.Mannopov. «So‘nmas navolar». Farg‘ona, 2002 y. s.37.)

1923 yili Moskvada o‘tkazilgan birinchi qishloq xo‘jalik ko‘rgazmasida Mamatbuva Sattorov, To‘ychi hofiz, Tamaraxonim, O‘ktam yallachi, Yusufjon qiziq, Ahmadjon qo‘shnay, To‘xtasin Jalilov kabi atoqli san‘atkorlar bilan qatnashadi Sungra Muhiddin Qoriyoqubov Mamatbuva Sattorovni o‘zining tuzgan etnografik ansamblida ishtirok etish uchun taklif etadi. Bu jamoada ustoz san‘atkor bir qator zamondoshlari bilan muvaffaqiyatli faoliyat olib boradi. Shu davrda





aytilib kelingan va mashhur ashulalarni ijro etib elga manzur qilishda hissa qo'shgan. «Ko'p erdi hasratim jono», «Sayyora», «Bir kelib ketsun», «Aylading ketding», «Ul kun jonon», «Chapandozi Gulyor», «Aylansun quling», «Adashganman», «Ey dilbari jononim» kabi ashulalar shular jumlasidandir. Yakkalarning ovozlida Mamatbuva Sattorov o'zlari mohirlik san'atini namoyish etsa, jo'rovozlilik ijrosini o'z shogirdi Jo'raxon Sulstonov bilan birgalikda ijro etishardi. Mamatbuva Sattorov o'zbek ashula ijrochiligida yorqin iz qoldirgan ustoz san'atkordir. Uning shogirdlari o'zbek an'anaviy musiqa ijrochiligi amaliyotida doimo sarbonlik qilib kelayotgan zabardast hofizlardan biridir. Zamonaviy xonandalik san'ati namoyandalari ham Mamatbuva Sattorovning ijro an'alarini qunt bilan o'zlashtirib, o'z ijodlarida samarali foydalanadilar.

R. Yunusovning hofiz ijodi haqidagi maqolasida Mamatbuva hofiz haqida quyidagi ma'lumotlarni ko'rish mumkin. Asli ismi Muhammad Sattorov bo'lgan, xalq honanda va sozandalaridan xalq ashula ijro yo'llarini o'rgangan. Boltaboy hofizdan ham ko'plab katta ashulalarni o'rgangan. 1925-30 yillarda Hamza boshchiligidagi agitbrigada, O'zbek etnografik truppasida, Hamza teatrda xonanda bo'lib faoliyat olib bordi.. Urush yillari Yangiyo'l musiqali drama va komediya teatri studiyasida yosh san'atkorlarga ashula yo'llarini o'rgatgan. Gavxar Raximova rahbarligidagi front konsert brigadasida xizmat qilgan. Hofiz Mamatbuva "Ko'p erdi hasratim", "Bir kelsun", "Aylading", "Kuling", "Fig'onkim", "Sayding qo'ya ber, sayyod" kabi katta ashulalarni mahorat bilan ijro etgan. U "Ushshoq", "Chorgoh", "Munojot", "Segoh" ashula yo'llarini, ayrim zamonaviy qo'shiqlar "O'zbekistondir", "Shodlik etsangchi yoshlar", "Dilrabolar" kabi ashulalarni katta ashula uslubida aytgan. J. Sultanov, M. Uzoqov singari ko'plab san'atkorlarining ustози bo'lgan. Ularga milliy ijro yo'llarini o'rgatgan.





1941yilda O‘zbekiston xalq hofizi unvoniga sazovor bo‘ldi. Ustoz san’atkor Muhammad Sattorov(Mamat buva) 1969 yil 4 martda Marg‘ilonda vafot etgan⁴.

Mamatbuva Sattorov nafaqat o‘zining honandalik mahorati bilan, balki yetuk inosniylik xususiyatlari bilan ham xalq orasida hurmat qozongan insondir. Quyidagi misol orqali buning yaqqol guvohi bo‘lish mumkin:

«Mamatbuva hofiz yetakchi»

Mamatbuva Sattorov ta’kidlaganlaridek, san’at olamida shunday kishilar bo‘ladiki, ular Alloh tomonidan berilgan iqtidori, san’atkorligi bilan shuhrat topadilar, bundan tashqari aqlu zakovati, say’-harakati bilan elu-yurtning peshvosiga aylanadilar. Xalq ularni sevadi, e’zozlaydi, tilidan qo‘ymaydi.

Mamatbuva Sattorov yoshligidanoq noyob iste’dodi, keng ko‘lamli ovozi, maftunkor ijrosi, o‘ziga xos uslubi bilan Markaziy Osiyoning shahar va qishloqlarida bo‘lib, elning e’tiborini qozondi. Shu bois odamlar orasida «Mamatbuva hofiz yetakchi» deya e’zoz topdi.

Keksalar shunday voqeani ko‘p eslashadi. Bu So‘kchilik qishlog‘i hududi orqali Toshloq rayoni markaziga yo‘l chiqarish bilan bog‘liq voqea edi.

Toshloq tumanidagi Hamrak va So‘kchilik qishloqlarini birlashtirgan jamoa xo‘jaligi raisi Hadyatilla Rahmatov rayon ma’muriy markaziga yo‘l chiqarishga ahd qildi. Yangi yo‘l qishloqning bir necha xonadonlarini kesib o‘tishi kerak edi. Bu masala mahalladagi yig‘inda muhokamaga qo‘yildi.

Rais mahalla hududi tuman markaziga yaqin bo‘lishiga qaramay bir necha tor ko‘chalarni aylanib o‘tib borilishini va bu murakkablik tug‘dirayotganini, mahsulotni davlat omboriga etkazishda ham noqulaylik mavjudligini aytdi. Bu yo‘llar yozda tizza baravari tuproq, qishda esa loy bo‘lib hammani qiynayotganligini uqtirishga harakat qildi. Biroq bu da’vatga xayrixohlik bo‘lmadi. Shunda davraga Mamatbuva Sattorov chiqdi, hamma jim bo‘lib qoldi.

⁴ "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / ISSN 2181-063X Volume 3 Issue 4 / December 2022 387
<http://oac.dsmi-qf.uz>





- «Hurmatli hamqishloqlar, — dedi u, - xalq uchun yo‘l chiqargan, ariq qazigan, ko‘prik qurgan kishi bu dunyo obro‘-e‘tiboriga, u dunyo saodatiga musharraf bo‘ladi. Savob yo‘lidagi bu hikmatlar hadisi sharifda, mumtoz adabiyotimiz namunalarida xam ko‘plab ta‘kidlanadi.

Hazrat Navoiy.

Odami ersang, demagil odami,

Onikim yo‘q, xalq g‘amidin g‘ami.

deganlaridek., bu o‘zgarishlar xalq manfaati, davlat ravnaqi uchun bo‘layapti.

Baland-past bo‘lsa ham to‘g‘ri yo‘l yaxshi. Chunki, ko‘tarilasan-pasayasan,

egrilikka yurmaysan deb xalqimiz to‘g‘ri aytgan. Foni dunyoda o‘z yo‘lini

to‘g‘rilagan bandaning oxirat yo‘li ham ravon bo‘ladi. Hamqishloqlarim, guvoh

bo‘ling, hovlimni kesib o‘tayotgan yo‘l chegarasi yonidan 5 sotixlik er maydonini

Mahalla guzari uchun in‘om etdim» - deya

Ko‘p erdi hasratim, jono,

qilay izhor deb keldim...

qo‘shig‘ini har galgidan ko‘ra balandroq, avjliroq, ta‘sirchanroq kuylab yubordi.

Katta ashula shinavandalarning qalblarini elitdi, ko‘zlari porlab, vujudlarida

shiddat jo‘sh urdi.

Qo‘shiq tugagach, «Otangga rahmat!», «Barakalla!», «Kam bo‘lma!» degan

xitoblardan ruhlangan hofiz xo‘jalik raisiga yuzlanib, menimcha el rozi bo‘ldi,

ammo bir iltimos bor, deya o‘z shartlarini qo‘ydi. Yangi yo‘lning ikki chetiga

sug‘orish ariqlari barpo qilib berasizlar, toki, mahalla ahli hovli-joyini sug‘orishi

qulay bo‘lsin. Ikkinchisi, mahallaga yo‘lning qirg‘og‘idan simyog‘ochlar o‘rnatib

shahar ko‘chalariga o‘xshash elektr quvvati olib kelasiz. Uchinchisi, mana

o‘zingiz shohid bo‘lganingizdek xalqimiz juda shinavanda, san‘atsevar, yangilikka

o‘ch. Shu bois simyog‘ochlarga radio karnaylari o‘rnattirib berasizlar, degan

mazmunda qishloq muammolar ijrosini barchaning ishtirokida tasdiqlatib oldi.

Oqibatda ravon yo‘l chiqdi, uning ikki yonida uy-joylar qad ko‘tardi. Obod





mahalla guzari qurildi. Undan bahramand bo'lganlar hamuzgacha Hadyatilla rais, Mamatbuva hofiz hamda himmati ulug' hasharchilar haqqiga duolar qilishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev “Yoshlar kuniga bag’ishlangan tantali marosimdagi nutqi”
30-iyun, 2022-yil
2. R. Yunusov “Mamatbuva Sattorov” Oriental Art and Culture" Scientific
Methodical Journal / ISSN 2181-063X Volume 3 Issue 4 / December 2022
387 <http://oac.dsmi-qf.uz>
3. O’zME 2-jild, Toshkent 2000
4. Soyibjon Begmatov “Bastakorlik ijodi” TOSHKENT – «NISO POLIGRAF»
– 2017

